



QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 25-iyun

188-4-60-Q/25

Koson tuman hokimligi

Qashqadaryo viloyati hokimining 2025 yil 19 iyundagi “Viloyatda chaqiriluvchilarni tanlab olish ishlarini tashkil etish va ularni mahsus qo‘shin turlariga dastlabki saralab olish tadbirlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 321-4-0- Q/25-sonli qarori haqida

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-aprel kunidagi 291-sonli “Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 2022-yil 10-sentyabr kunidagi 666-sonli buyrug‘i asosan 2026-yil navbatdagi chaqiriluvchilarni o‘rganish, tanlab olish tadbirlarini tashkil etish, ularni, ularni maxsus qo‘shin turlariga dastlabki saralash ishlarini tashkil etish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyat hokimining 2025 yil 19-iyun kunidagi 321-4-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. 1998-2008 yillarda tug‘ilgan, chaqirish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etish huquqiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini 2026-yil chaqiruv mavsumida muddatli harbiy xizmatga tayyorlash ishlari tumanda 2025-yil 1-iyul kundan boshlab tashkil etilsin;

3. Koson tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (H.Nazarov)ga

Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 291-sonli qarori bilan tasdiqlangan chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-ilovasida belgilangan tarkibda tumanda chaqiriluvchilarning umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baxolash hamda yakka tartibda suhbat o‘tkazish bo‘yicha tanlov kengashini tashkil etilsin;

Chaqiriluvchilarning umumjismaniy tayyorgarlik darajasini baholash joyi Koson tuman markaziy o`yingohida 2-ilovaga asosan tashkillashtirish:

Yakka tartibda suhbat o`tkazish joyi belgilangan tartibda Koson tumani Mudofaa ishlari bo`limi hududida 2.1-ilovaga asosan tashkillashtirish:

Chaqiriluvchilarni tanlab olish ishlarini tashkil etish va ularni mahsus qo`shin turlariga dastlabki saralab olish tadbirlarini tashkil etish bo`yicha vazifalarni o`z vaqtida va sifatli tashkillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 3-ilovaga asosan qabul qilinsin;

Joylarda chaqiriluvchilarning oilaviy sharoitini o`rganish bo`yicha ishlarni tashkil etish;

Muddatli harbiy xizmatga chaqiriladigan chaqiriluvchilarni o`rganish jarayonida safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga tanlab olinadigan chaqiriluvchilarning ota-onalari bilan alohida suhbatlar o`tkazib, ularning oilaviy, moddiy va ijtimoiy ahvolini inobatga olgan holda safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga chaqiriluvchilar ro`yxatini shakllantirish;

tumanda chaqiruv punktini navbatdagi chaqiruvga tayyorlash hudud va atroflarni ko`rgazmali bannerlar bilan jihozlash;

jamoat tashkilotlari bilan birgalikda chaqiriluvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo`yicha tadbirlar tashkillashtirish topshirilsin.

4. Koson hokimligi sog`liqni saqlash bo`limi boshlig`i (F.Tursunov)ga

2025-yilning 1-iyul kunidan boshlab chaqiriluvchilarni mahalla fuqorolar yig`inlarida o`rganishga hududlardagi qishloq vrachlik punktlari xodimlarini jalb etish, chaqiriluvchilarning sog`ligi, oila a`zolari va ularning dispanser nazoratida turish yoki turmasligi holatiga alohida e`tibor qaratilsin;

Tanlov tadbirlarini o`tkazish davomida tuman Mudofaa ishlari bo`limi boshlig`ining talabnomasiga asosan tez tibbiy yordam mashinasi mutaxassis shifokorlar ishtirokini ta`minlash topshirilsin;

5. Tuman mudofaa ishlari bo`limi boshlig`i (Z.Hasanov)ga:

joylarda chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to`g`risidagi nizomga asosan chaqiriluvchilar tanlovi tashkil etilsin;

tanlov kengashining yakuniy qarori asosan chaqiriluvchilarni mahsus qo`shin turlariga dastlabki saralab olish tadbirlari va harbiy qism vakillariga taqdim qilish;

2026-yilgi chaqiruv oldidan chaqiruv yoshidagi fuqorolarni muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatlariga tanlab olish hamda mahsus qo`shinlarga saralash ishlari yuzasidan tuman hokimligiga axborot berib borilsin.

6. Tuman maktab va maktabgacha ta`limi bo`limi boshlig`i (A.Tursunov)ga

chaqiriluvchilarni umumjismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun tuman mudofaa ishlari bo'limiga bir nafardan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining jismoniy tayyorgarlik fani o'qituvchilari ajratilsin;

chaqiriluvchilarni o'rganish davrida tuman mudofaa ishlari bo'limiga belgilangan tartibda yordamchi xodimlar ajratish topshirilsin.

7. O'zbekiston maxallalari uyushmasi Koson tuman bo'limi boshlig'i U.Ochilovga

Tuman tanlov kengashi tomonidan nizomda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash;

Mahalla fuqarolar yig'inlarida chaqiriluvchilarni o'rganish davomida tuman mudofaa ishlari bo'limi bilan hamkorlikda o'rganish ishlarini tashkillashtirish va amaliy yordam berish;

Muddatli harbiy xizmatga chaqiriladigan chaqiriluvchilarni o'rganish jarayonida safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga tanlab olinadiganlarning ota-onalari bilan alohida suhbatlar o'tkazilib, ularning oilaviy, ijtimoiy ahvolini inobatga olgan holda safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga olinish lozim bo'lgan chaqiriluvchilarning ro'yxatlarini taqdim qilish topshirilsin;

8. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i B.Mirzaevga, tanlov tadbirlari o'tkaziladigan joylarda harakat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash choralari ko'rilsin.

Tanlov tadbirlariga qatnashish yoki tuman mudofaa ishlari bo'limiga kelishdan bosh tortgan chaqiriluvchilarni tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i taqdim qilgan ro'yxatga asosan tuman mudofaa ishlari bo'limiga yetkazilsin.

9. Koson gazetasi tahririyati bosh muxarriri O.Oromovga tumanda chaqiriluvchilarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga oldindan tanlab olish va sinovlaridan o'tish jarayonlarini ommaviy ahborot vositalari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari X.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi



A.Boykaraev

Koson tumani hokimining
2025-yil 25-iyundagi
188-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Chaqiriluvchilarning umumjismaniy tayyorgarlik darajasini baholash va yakka tartibda suhbat o'tkazish bo'yicha tanlov natijalarinig tanlov kengashi namunali

TARKIBI

T.r	F.I. SH	Lavozimi
Tanlov kengashi komissiya raisi:		
1	N.Asiddinova	O'zbekiston maxallalari uyushmasining Qashqadaryo viloyati Koson tuman bo'limi yetakchi mutaxassisi
Komissiya a'zolari:		
2	A.Tursunov	Tuman xalq ta'limi bo'limi boshlig'i o'rinbosari
3	N.Jumayeva	Koson tuman yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limi vakili
4	I.Toshmuradova	Tuman Ichki ishlar bo'limi voyaga yetmaganlar bo'yicha katta inspektori
5	L. Raxmonov X. Bobojonov	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qtuvchilari

Koson tumani hokimining
2025-yil 25-iyundagi
188-4-60-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**2026-yilgi chaqiruvda chaqirilishi lozim bo'lgan chaqiriluvchilarni
umumjismoniy tayyorgarlik sinovlariga jalb qilish**

JADVALI

O'tkazish sanasi va vaqti	O'tkazish vaqti	O'tkazish joyi	O'tkazilganligi bo'yicha qaydnoma raqami
12.08.2025 y	08-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
19.08.2025 y	08-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
26.08.2025 y	08-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
09.09.2025 y	08-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
16.09.2025 y	08-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
23.09.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
30.09.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
07.10.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
14.10.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
21.10.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
28.10.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
04.11.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
11.11.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
18.11.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o'yingox	
25.11.2025 y	10-00	Koson tuman	

		markaziy o`yingox	
02.12.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
09.12.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
16.12.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
23.12.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
30.12.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
06.01.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
13.01.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
20.01.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
27.01.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	
03.02.2025 y	10-00	Koson tuman markaziy o`yingox	

Har bir mahalla o`rganilgandan so`ng tanlov sanasi belgilanishi lozim 1-iyulga qadar.

**2026 yilgi chaqiruvda chaqirilishi lozim bo'lgan chaqiriluvchilarni
umumjismoniy tayyorgarlik sinovlariga jalb qilish**

JADVALI

O'tkazish sanasi va	O'tkazish vaqti	O'tkazish joyi	O'tkazilganligi bo'yicha qaydnoma raqami
12.08.2025 y	08:00	Koson tuman MIB	
19.08.2025 y	08:00	Koson tuman MIB	
26.08.2025 y	08:00	Koson tuman MIB	
09.09.2025 y	08:00	Koson tuman MIB	
16.09.2025 y	08:00	Koson tuman MIB	
23.09.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
30.09.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
07.10.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
14.10.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
21.10.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
28.10.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
04.11.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
11.11.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
18.11.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
25.11.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
02.12.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
09.12.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
16.12.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
23.12.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
30.12.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
06.01.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
13.01.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
20.01.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
27.01.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	
03.02.2025 y	10:00	Koson tuman MIB	

Har bir mahalla o'rganilgandan so'ng tanlov sanasi belgilanishi lozim 1-iyulga qadar.

Chaqiriluvchilarni tanlab olish ishlarini tashkil etish va ularni mahsus qo'shin turlariga dastlabki saralab olish tadbirlarini tashkil etish bo'yicha vazifalarni o'z vaqtida va sifatli tashkillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar

R E J A S I

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlarning mazmuni	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.	Komissiyalar faoliyatining shaffofligiga alohida e'tibor qaratish, komissiya tomonidan adolatli qaror qabul qilinishini hamda harbiy xizmatga eng loyiq nomzodning tanlab olish.	avgust-fevral oylari	Tuman tanlov kengashi
2.	Muddatli harbiy xizmatni o'tab, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning hayotida o'z o'rnini topishida harbiy xizmatning roli va o'rnini haqidagi chiqishlarini tashkil etish.	avgust-fevral oylari	Yoshlar ishlari agentligi bo'limi
3.	Tuman chaqiruv punktlari tibbiy komissiyalari tarkibini yuqori malakali tibbiyot xodimlari va zarur tibbiy asbob-anjomlar bilan ta'minlash.	Mart-aprel oylari	Tuman sog'liqni saqlash bo'limi tuman mudofaa ishlari bo'limi
4.	Tumanda tanlov tadbirlarini tashkil etish bo'yicha tuzilgan komissiyalarning ish faoliyati uchun kerakli bo'lgan kanselyariya mollari va tibbiy vositalar sotib olish uchun mahalliy budjetdan tegishli mablag' ajratish hamda viloyat yig'uv punkti, tuman va shahar chaqiruv punktlarini mavzuga doir targ'ibot materiallari bilan bezash.	Belgilangan muddatlarda	Tuman moliya iqtisod bo'limi, tuman musofaa ishlari bo'limi
5.	Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga tayyorlashning borishi, ularni harbiy xizmatga chaqirishning amalga oshirilishi, tanlov tadbirlarini tashkil etish bo'yicha tuzilgan komissiyalar ishi, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatiga saralab olishning tashkil qilish tadbirlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Belgilangan muddatlarda	«Koson» gazetasi tahririyati Tuman hokimligi matbuoti
6.	Tuman va shaharlarda tanlov tadbirlarini tashkil etishda chaqiriluvchilar to'planish va jo'natish joylarida jamoat tartibini saqlash maqsadida, 2024 yil 10 avgust kunidan 2025 yil 10 fevral kuniga qadar tuman va shahar mudofaa ishlari bo'limlariga tanlov o'tkazish jadvaliga	Tanlov tadbirlari davomida	Tuman ichki ishlar boshqarmalari

	asosan 4 nafar ichki ishlar xodimi ajratish.		
--	--	--	--